



OT DERIVATSIYASINING TARKIBIY QISMLARI: OPERANT, OPERATOR VA DERIVAT MUNOSABATLARI

Sadulloyeva Sevinchoy Lutfullo qizi

Samarqand davlat chet tillar insitituti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek tilshunosligining eng peshqadam yo'nalishlaridan biri bo'lgan derivatologiya sathida ot turkumi birliklarining shakllanish mexanizmlari tadqiq etiladi. Tadqiqot markazida derivatsion jarayonning fundamental birliklari — operant, operator va derivat tushunchalari hamda ularning o'zaro lisoniy-semantik munosabatlari tahlili turadi. Maqolada so'z yasalishi jarayonidagi motivatsiya hodisasi, modellashirish tamoyillari va yasama otlarning mikrosintagmatik qurilishi substansial hamda antroposentrik tilshunoslik yutuqlari asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: derivatologiya, operant, operator, derivat, nominalizator, motivatsiya, lisoniy qolip.

Zamonaviy tilshunoslikda til nafaqat tayyor birliklar yig'indisi, balki doimiy ravishda o'zini-o'zi yangilab boruvchi dinamik tizim sifatida talqin qilinmoqda. Ushbu yangilanish jarayonining markaziy o'zagini derivatsiya hodisasi tashkil etadi. Derivatsiya tushunchasi dastlab an'anaviy so'z yasalishi terminiga teng deb qaralgan bo'lsa-da, bugungi kunda u leksik, semantik va sintaktik sathlarni qamrab oluvchi keng ko'lamli derivatologiya fanining asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Ot turkumi o'zining nominativ tabiati bilan derivatsion salohiyati eng yuqori bo'lgan turkum sanaladi. Ot derivatsiyasini o'rganish borliqning lisoniy manzarasini predmetlashtirish qonuniyatlarini anglash imkonini beradi. Ushbu jarayonni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash uchun derivatsiyaning tarkibiy unsurlari bo'lmish operant, operator va derivat birliklari o'rtasidagi iyerarxik munosabatlarni aniqlash metodologik zaruriyat hisoblanadi.

Lisoniy tizimda yasalish qay turda bo'lishidan qat'i nazar, derivatsion tahlil doimo uchta asosiy predmetga tayanadi: operant, operator va derivat. *Operant* — bu derivatsiya jarayoni yuzaga kelguniga qadar mavjud bo'lgan til materiali, ya'ni yasash asosi bo'lib xizmat qiluvchi birlikdir. Masalan, *paxtazor* yasama otida *paxta* leksemasi operant vazifasini bajaradi. *Operator* esa derivatsiyani yuzaga keltiruvchi, operandni yangi sifat bosqichiga o'tkazuvchi lisoniy vositadir. O'zbek tilida operatorlar asosan affiksial morfemalar (masalan, *-chi*, *-zor*, *-lik*) ko'rinishida namoyon bo'ladi. *Derivat* yoki hosila esa ushbu jarayonning yakuniy natijasi, ya'ni tilda yangi paydo bo'lgan leksema yoki birikmadir. Ilmiy tahlillarim shuni ko'rsatadiki, operant va operatorning



birikuvi shunchaki mexanik birikish emas, balki murakkab semantik transformatsiyadir. Masalan, *temir* (operant) va *-chi* (operator) birikkanda hosil bo'lgan *temirchi* derivati o'zining mustaqil leksik ma'nosiga ega bo'ladi. P.A. Soboleva ushbu jarayonni simvollar orqali ifodalashni taklif etgan bo'lib, unda operant O (obyekt) harfi bilan, operatorlar esa funktsiyasiga ko'ra R simvoli bilan belgilanadi. Ot yasovchi operatorlar *R2* – *nominalizator* deb yuritiladi. Demak, ot derivatsiyasining universal formulasi $O + R2 = X$ (*derivat*) ko'rinishida bo'ladi. Ushbu model ot yasalishi jarayonini matematik aniqlikda modellashtirish va til tizimidagi derivatsion qoliplarni tizimlashtirish imkonini beradi.

Yasama otning vujudga kelishida operant va derivat o'rtasidagi *motivatsiya* munosabati markaziy ahamiyatga ega. Motivatsiya deganda yasama leksema ma'nosining operant ma'nosiga tayanishi va undan mantiqan kelib chiqishi tushuniladi. Masalan, *gulsiz* derivati tarkibidagi *gul* asosi derivatning mazmuniy mundarijasida saqlanib qoladi, bu esa "motivatsiyalashganlik" holati sanaladi. Professor A.G'ulomov ta'kidlaganidek, har bir yasama so'z ikki elementning yani asos va yasovchi semantik va formal aloqadorligidan tashkil topadi, bu esa derivatsiyaning *binarlik* xususiyatini isbotlaydi.

Derivatsion munosabatlarda "motivlovchi" (operant) va "motivlanuvchi" (derivat) o'rtasidagi aloqa tilning nominativ barqarorligini ta'minlaydi. Biroq shuni yodda tutish kerakki, derivatsiya jarayoni pog'onali xarakterga ega bo'lishi mumkin. Masalan, *yog'ingarchilik* derivati tarkibida bir necha qo'shimchalar mavjud bo'lsa-da, derivatsion tahlil tamoyillariga ko'ra, faqat eng oxirgi yasovchi vosita operator sanaladi, qolgan qism esa yaxlit operand sifatida qaraladi. Ya'ni, *yog'in* (operand) + *-garchilik* (operator) = *yog'ingarchilik*. Bu nazariya operatorlarning ketma-ket almashinuvi natijasida tilning lug'at boyligi tizimli ravishda kengayib borishini izohlaydi.

Derivatsiya tushunchasi so'z chegarasidan chiqib, sintaktik sathga o'tganda yangicha mohiyat kasb etadi. Yasama so'zlar nafaqat leksik, balki mikrosintagmatik munosabatlarni ham shakllantiradi. Professor N.Turniyozov yozganidek, so'z yasalishi jarayonidagi morfemalararo munosabatlarni "kichik sintaksis" deb atash mumkin. Bu shuni anglatadiki, operant va operator o'rtasidagi bog'lanish ma'lum bir sintaktik valentlikka asoslanadi. Masalan, *-chi* operatori har doim "asosdan anglashilgan narsa bilan shug'ullanuvchi shaxs" degan predikativ hukmni o'zida tashiydi.[5]

Substansial tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashilganda, ot yasovchi morfemalar tilda tayyor *lisoniy qolip* sifatida mavjud bo'ladi. Masalan, [Ot + -zor] qolipi lisoniy sathga tegishli bo'lib, u orqali yaratilgan *paxtazor*, *olmazor*, *ajriqzor* kabi hosilalar ushbu qolipning *nutqiy voqelanishi* hisoblanadi. Lisoniy



qoliplar miqdoran cheklangan bo'lsa-da, ularning hosilalari nutq vaziyatiga ko'ra cheksizdir. Bu dialektik munosabat o'zbek tili derivatsion tizimining naqadar iqtisodiy va qudratli ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, derivat shakllanishida operator har doim ham moddiy (fonetik) ko'rinishda bo'lmasligi mumkin; bunday hollarda derivatsiya "nol morfema" ishtirokida (konversiya orqali) sodir bo'ladi.[3]

Xulosa ornida tahlillar natijasida aytish joizki, ot derivatsiyasi operant, operator va derivatning uzviy dialektik birligidan iborat murakkab tizimdir. Operant derivatsiya uchun ashyoviy baza bo'lib xizmat qilsa, operator nominalizator vazifasini bajarib, yangi leksik-grammatik ma'noni shakllantiradi. Derivat esa ushbu lisoniy harakatning natijasi o'laroq, tilning nominativ tizimida mustaqil leksema sifatida o'rin egallaydi. Motivatsiya va modellashtirish tamoyillari asosida qurilgan derivatsion qoliplar tilning o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatlarini belgilab beradi. Binobarin, otlar derivatsiyasining tarkibiy qismlarini professional darajada o'rganish ona tilimizning boy derivatsion salohiyatini to'laqonli ochib berishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: 2020.
2. Karimov I.T. Leksik derivatsiya xususida ayrim qaydlar. – Samarqand: 2025.
3. Yuldosheva G. Derivatsiya va unda qolipning ifodalanishi. – Qarshi: 2024.
4. Aliyeva Sh. Yasama so'zlar derivatsiyasi xususida. – Andijon: 2023.
5. Turniyozov N.Q. Mahmud Koshg'ariy va hozirgi tilimizda so'z yasalishi. – 2014.